

XI ASRDA G‘ARB MUTAFAKKIRLARI YARATGAN TARBIYAVIY QADRIYATLAR, KAYKOVUSNING “QOBUSNOMA” ASARI MISOLIDA

Qolandarova Dilafruz Karimovna

Urganch Davlat Universiteti

1-bosqich doktoranti

Annotatsiya: Bu maqolada O‘rta Osiyo va Sharq, G‘arb xalqlari mutafakkirlari pedagogika tarixi va hozirgi kungacha bo‘lgan turli tarixiy davrlarda tarbiya, maktab va pedagogika nazariyalarining taraqqiyotini o‘rganish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: pedagogika, tarbiya, ijtimoiy-tarixiy tajriba, ma’naviy-axloqiy qadriyat, zamonaviy pedagog, o‘quv-tarbiyaviy tarbiya, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya, tarixiy davr, tamoyil.

Аннотация: В статье рассматривается история педагогики среднеазиатских, восточных и западных мыслителей, а также развитие образования, школы и педагогических теорий в разные исторические периоды до настоящего времени.

Ключевые слова: педагогика, образование, общественно-исторический опыт, духовно-нравственная ценность, современный педагог, учебно-просветительское образование, духовно-просветительское образование, исторический период, принцип.

Annotation: This article deals with the history of pedagogy of Central Asian and Eastern and Western thinkers and the development of education, school and pedagogic theories in different historical periods until now.

Key words: pedagogy, education, social-historical experience, spiritual-moral value, modern pedagogue, educational-educational education, spiritual-educational education, historical period, principle.

O‘zbekistonda mustaqillikning ilk yillaridanoq milliy tariximiz va ma’naviyatimizni, o‘zligimizni qayta tiklashga, xalqimizning boy ma’naviy merosini o‘rganib, keng yoritish, jamoatchilikka tanishtirish va targ‘ib qilishga katta e’tibor berila boshladi. Bunday ma’naviy islohotlarni amalga oshirish uchun eng avvalo ijodkor xalqimizga ijtimoiy hayotning hamma sohalarida keng imkoniyatlar yaratildi. Mustaqillik yillarida jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalarini isloh qilish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Bu davrda xalqimizning tafakkuri va dunyoqarashi kengaydi, o‘zligini anglashga bo‘lgan intilishi, o‘tmishiga, tarixiga, boy ma’naviy qadriyati va an’analari, ma’naviy merosiga qiziqishi kuchaydi. Ayniqsa jahon sivilizatsiyasiga o‘zining boy ma’naviy merosi bilan muhim hissa qo‘shgan Markaziy Osiyolik Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Najmiddin Kubro, Ahmad

Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy, Bobur singari o‘rta asr allomalari, shuningdek, Munis Xorazmiy, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Feruz, Avaz O‘tar, Tabibiy kabi Xorazm ma‘rifatparvarlarining ijtimoiy-falsafiy, ma‘naviy-axloqiy va gumanistik qarashlari har tomonlama chuqur, xolisona, yangicha yondashuvlar asosida tadqiq qilina boshlandi.

Sharq olamida ilmiy -tarbiyaviyva pedagogik tomondan kitobxonlar diqqatini jalb qilgan muhim asarlardan biri — Qaykovusning 1082-1083 melodiylar, 475 hijriy yillarda yaratilgan «Qobusnoma» asaridir. Qaykovus bu asarni o‘g‘li Gilonshohga bag‘ishlaydi.

X-XI asrlar feodal jamiyatida madaniyat, ilm fan, san‘at va adabiyot-anchagina rivojlangan va taraqqiy etgan davr edi. Abu Abdulloh Rudakiy, Abulqosim Firdavsiy, Abul Hasan binni Ahmad Unsuriy kabi shoir va olimlar X-XI asrning yirik namoyandalari edilar. “Qobusnoma” ham mazkur XI asrning ko‘zga tashlanib turgan mevalaridan hisoblanadi.

“Qobusnoma” rus va g‘arb sharqshunoslarining, sharq olimlari va pedagoglarining diqqatini jalb etdi. Bu olimlar «Qobusnoma»ni diqqat bilan o‘rgandilar va o‘z tillariga tarjima qildilar. Masalan, 1702-1705 yillarda turk tillariga, 1786-87-yillarda Muhammad Sidiq Rashidiy tomonidan uyg‘ur tiliga, taxminan 1860-yilda Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan o‘zbek tiliga, 1881-yilda esa Qayum Nosiriy tomonidan tatar tiliga tarjima qilingan. Bu tarjimalar turkiy tillardagi eng nodir nusxalar bo‘lib qoldi. Bulardan tashqari, «Qobusnoma» 1886 - yilda rus tiliga, shuningdek fransuz tiliga, 1811-yilda esa nemis tiliga tarjima qilindi va bu millatlar ham uni o‘z onatillarida diqqat bilan o‘rgana boshladilar.

Rus va G‘arb pedagog olimlari bola tarbiyasiga, uning axloqiy masalalariga qanchalik e‘tibor bergan bo‘lsalar, Sharq olimlari ham shunchalik katta e‘tibor berganlar.

Bu tarbiya Sharq olimlari tomonidan yaratilgan asarlarda o‘z ifodasini topdi.

Jumladan, mashhur hind masali «Kalila va Dimna», Nizomul Mulkning «Siyosatnoma», Nosir Xisravning «Saodatnoma», «Ro‘shnoinoma», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘ubilik», Mahmud Qoshg‘oriyning «Devoni lug‘otit turlar», Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq», Alisher Navoiyning «Mahbul-qulub», «Vaqfiya» kabi asarlari muhim ahamiyatga ega bo‘lgan manbalardir, «Qobusnoma» esa shular jumlasidandir.

“Qobusnoma” ning 27-bobi “Farzand parvarish qilmoq zikrida” bo‘lib unda kelajak avlod tarbiyasi va uning dunyosi uchun qilinishi kerak bo‘lgan muammolar

tahlil qilinadi. “ Ey farzand agar farzanding bo‘lsa, anga ot qo‘yg‘il, nedinkim, otadin farzand haqlaridin biri unga yaxshi ot qo‘ymoqdur. yana biri uldurkim, farzandni oqil va mehribon doyalarga topshurg‘aysan”.

Darhaqiqat, farzand dunyoga kelgach unga ilk qilinadigan ish ism qo‘ymoqdir. Chunki ismning yaxshisini qo‘yish ota-onaning mas‘uliyatidir. Eng asosiysi uni yaxshi tarbiyachiga ya‘ni ilmi o‘qituvchiga berishdir. Uning kelajagi yaxshi o‘qituvchi, ilm beruvchidir.

“Demak farzandingga hunar va fazl o‘rgatmakda taqdir qilmag‘il va har ilmni o‘rgatuvchi muallimlar ta‘lim uchun ursalar, sen shafqat ko‘rguzgil, mayli ursunlar, nedinkim yosh o‘g‘lon ilm va adabni tayoq bila o‘rganur va o‘z ixtiyori bilan o‘rganmas. Ammo farzand beadab bo‘lsa va sening ul sababdin qahring kelsa, o‘z qo‘ling bila urmag‘il, muallimlarning tayog‘i bila qo‘rqutg‘il. Bolalarga muallimlar adab bersunlar, toki sendin o‘g‘lingning ko‘nglida gina qolmasin. Ammo uning ko‘ziga o‘zingni haybatlig‘ ko‘rguzgil, to seni xor tutmasin va hamisha sendin qo‘rqib yursin. U bir narsani orzu qilsa, qudrating yetguncha undin ayamag‘il, to tanga havasi bila sening o‘limingni tilamasin“.

Farzanda adab, hunar o‘rgatg‘il, xoh o‘rgatmag‘il turmush mashaqqatlarining o‘zi unga o‘rgatur. Undoqkim debdurlar, ota-ona tarbiyalamasa, kecha va kunduz uni tarbiyalaydur.

Kaykovus farzand tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratgan, uni tug‘iganidan tanasi va aqlini tarbiyalashga buyuradi. “ Otaliq shartin bajo kelturg‘ilki, farzanding vujudga kelg‘ondagidek, tiriklik qilsin, ya‘ni har odamki vujudga kelur va shu kundan e‘tiboran xulqi va tabiati unga hamroh bo‘lur, ammo ul ojizlik va bequvvatlikdin uni namoyon qilmag‘usidur. Katta bo‘lg‘on sayin jizmi va ruhi quvvat topar va barcha ruhi [hamma fe‘l atvori] rivojlanadur, kamolga yetg‘ondin so‘ng tamomi yaxshilik va yomonlig‘ini zohir qilur. Lekin sen adab, hunar va donishni farzandingga o‘zingdin meros qilg‘il, toki uning haqqinin bajo kelturmush bo‘lg‘aysan.

Chunki, xos kishininglarning farzandlariga adab va hunardin yaxshiroq meros yo‘qtur va omiy xaloyiqning farzandlariga hirfa [savdo, hunar], pasha [kasb], din yaxshiroq meros yo‘qdur. Pesha qilmoq (o‘rganmoq) muhtashamlarning farzandlariga nomunosib ko‘rinur. Ammo pasha haqiqatda barcha hunarlarning ulug‘idir. Agar xos odamlarning farzandi yuz hunar bilsa va lekin hech kasbni qilmasa, ayb emasdur. hunar esa bir kun ishga yaragusidur”.

Kaykovusning katta xizmati shundaki, u kelajak avlodni hayotga tayyorlashda ularning har tomonlama kamolga yetishining nazariy masalalarini amaliy tadbiqu nuqtayi nazaridan nihoyatda mukammal tarzda ifodalagan. Bugunga qadar bu asar farzand tarbiyasi, uning kelajagi uchun muhim omil vazifasini o‘tab kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son qonuni.<https://lex.uz>
- 2.Pedagogika, T., 1996; O‘zbek pedagogikasi tarixi, T., 1997; Qurbonov Sh., Seytxalilov E., Kadrlar tayyorlash milliy dasturi: pedagogik tadqiqotlar yo‘nalishi va muammolari, T., 1999; O‘zbek pedagogikasi antologiyasi [tuzuvchilar: K. Hoshimov, S. Ochil], 1-, 2-j.lar, T., 1995, 1999. Qozoqboy Yo‘ldoshev.^[1]
- 3.Kaykovus “Qobusnoma” © «O‘qituvchi» nashriyoti, 1986 -yil. Kitobxon.Com
- 4.O‘zbek pedagogikasi tarixi (qo‘llanma).prof.A.Zunnunov tahriri ostida.T.1997
- 5.Hoshimov K.,S.Ochil.O‘zbek pedagogikasi antologiyasi.-T.:O‘qituvchi,2010